



O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

Ichki valyuta bozori sharhi

2026-yil I yarim yillik

Ichki valyuta bozori sharhi

Valyutaga bo'lgan talab va valyuta taklifidagi o'zgarishlar


2026-yilning I yarim yilligida ichki valyuta bozorida xorijiy valyutaga bo'lgan umumiy taklif o'sish sur'ati talab o'sish sur'atiga nisbatan yuqori shakllandi.

Bunda, xorijiy valyutaga bo'lgan talab qariyb **32 mlrd** AQSh dollarini (*keyingi o'rinlarda – dollar*) tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan **20 foizga** oshdi.

Ichki valyuta bozorida xorijiy valyuta taklifi (*Markaziy bank operatsiyalarini hisobga olmagan holda*) **27,8 mlrd** dollarni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **31 foizga** o'sdi.


1-rasm

Xorijiy valyutaga talab,
mln dollarda



2-rasm

Subyektlar kesimida
valyuta taklifi, mln dollarda



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

Markaziy bankning monetar oltin bilan bog'liq operatsiyalari hisobiga shakllangan qo'shimcha likvidlik Markaziy bankning neytrallik tamoyili doirasidagi valyuta operatsiyalari hamda boshqa pul-kredit instrumentlari orqali sterilizatsiya qilib borildi.

Yuridik shaxslarning valyuta talabi va taklifi dinamikasi


Mazkur davrda yuridik shaxslar tomonidan xorijiy valyutaga talab 2025-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **19 foizga**, xorijiy valyuta taklifi esa **29 foizga** oshdi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport tushumlari hisobiga shakllanadigan valyuta taklifi ushbu davrda **30 foizga** oshib, **10,1 mlrd** dollarni tashkil etdi. Mazkur eksport tushumlarining **5,6 mlrd** dollari yoki **55 foizi** ichki valyuta bozorida sotildi (2025-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 26,4 foiz yoki 1,2 mlrd dollarga ko'p).

Importni moliyalashtirish manbalari tarkibida ichki valyuta bozorida sotib olingan mablag'lar (konvertatsiya) ulushi **67,2 foizni** (2025-yil yanvar-iyun oylarida – 63,1 foiz), xorijiy valyutadagi o'z mablag'lari hisobiga importni moliyalashtirish ulushi **22,6 foizni** tashkil etdi (2025-yil yanvar-iyun – 23,7 foiz).

3-rasm

2025-2026-yillar yanvar-iyun oylarida importni moliyalashtirish manbalari, foizda



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari


Jismoniy shaxslarning valyuta talabi va taklifi dinamikasi

Jismoniy shaxslarning banklar bilan amalga oshirgan operatsiyalarining ijobiy saldosi ichki valyuta bozorida qo'shimcha taklif manbai bo'lib xizmat qildi.

Aholi tomonidan tijorat banklariga **12,3 mlrd** dollar sotilib, ushbu ko'rsatkich 2025-yilning I yarim yilligiga nisbatan qariyb **1,4** barobarga oshdi (2025-yil yanvar-iyun – 9,1 mlrd dollar).

Mazkur davrda jismoniy shaxslar tomonidan **6,8 mlrd** dollar sotib olinib, ushbu ko'rsatkich 2025-yilning I yarim yilligiga nisbatan **26 foizga** o'sdi (2025-yilda – 5,4 mlrd dollar).

Natijada, jismoniy shaxslar tomonidan xorijiy valyuta taklifi hajmi unga bo'lgan talab hajmidan **5,5 mlrd** dollarga ortiq bo'ldi.



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

2026-yilning yanvar-iyun oylarida xalqaro pul o'tkazmalari orqali mamlakatimizga **9,3 mlrd** dollar miqdorida valyuta mablag'lari kelib tushgan bo'lsa, **1,3 mlrd** dollar mablag' chiqib ketdi hamda **8 mlrd** dollarlik ijobiy saldo shakllandi.

Almashuv kursi dinamikasi


2026-yilning I yarim yilligida yuridik shaxslarning valyuta taklifi, eksport tushumlari va pul o'tkazmalari hajmining oshishi natijasida ichki valyuta bozorida valyuta almashuv kursi nisbatan barqaror shakllandi.

Bunda, milliy valyuta ayirboshlash kursi 11 935 – 12 320 so‘m/AQSH dollari diapazonida tebranib, hisobot davri yakunlari bo‘yicha 12 009 so‘m/AQSH dollarni tashkil etgan holda yil boshiga nisbatan o‘zgarishsiz qoldi.

2026-yilning yanvar-iyun oylari davomida almashuv kursining kunlik ikki tomonlama tebranuvchanligi 30,2 so‘mgacha oshdi (*o‘tgan yilning mos davrida – 22,7 so‘m*).

6-rasm

2025-2026-yillar yanvar-iyun oylarida valyuta almashuv kursi dinamikasi, so‘mda



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ)ning joriy yilning iyun oyidagi Kelishuvlarining IV moddasi yuzasidan O‘zbekiston bo‘yicha hisobotida mamlakatimiz almashuv kursi rejimi qayta baholanib, “sudraluvchi” maqomidan “suzuvchi” maqomiga o‘zgartirildi.

Hozirda Janubiy Koreya, Yangi Zelandiya, Malayziya, Turkiya, Tailand, Armaniston, Qozog‘iston kabi 33 ta mamlakat “suzuvchi” almashuv kursi rejimi maqomiga ega.

Valyuta bozorini rivojlantirishda zarur bozor infratuzilmalari va shart-sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar, banklarning almashuv kursi shakllanishidagi rolining oshganligi **so‘m almashuv kursining tashqi o‘zgarishlarni o‘zida aks ettiruvchanligini oshirmoqda.**

Hisobotda **milliy valyuta kursi moslashuvchanligini ta'minlash** inflyatsion targetlash tizimi samaradorligini oshirish va **tashqi shoklar ta'sirini yumshatishning muhim sharti** sifatida e'tirof etilgan.

Qayd etish joizki, milliy valyuta almashuv kursi rejimiga **“suzuvchi”** maqomi berilishi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, inflyatsiyani pasaytirish choralari samaradorligini oshirish hamda **iqtisodiyotning tashqi shoklarga bardoshlilikini kuchaytirish** borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim natijasi hisoblanadi.

Ichki valyuta bozorini rivojlantirish maqsadida kelgusida amalga oshirilishi belgilangan chora-tadbirlar

Joriy yil so'nggicha va kelgusi yilda Markaziy bank tomonidan ichki valyuta bozorini rivojlantirish borasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilmoqda:

- Markaziy bankning ichki valyuta bozoridagi operatsiyalarini **riskka asoslangan holda** amalga oshirish strategiyasi ishlab chiqiladi;
- valyuta bozorida **market-meykerlik instituti** rivojlantiriladi va banklarning **kurs shakllanishidagi roli** yanada oshiriladi;
- **savdo infratuzilmasi**, jumladan, hisob-kitob va kliring hamda bozor monitoringi tizimlari takomillashtiriladi;
- valyuta **xatarlarini xedjirlash** amaliyoti, shu jumladan hosila moliyaviy vositalar bo'yicha huquqiy va institutsional asoslar mustahkamlanadi.